INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

SOLIQ QONUNCHILIGINI BUZISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING JINOYAT-PROTSESSUAL VA KRIMINALISTIK JIHATLARI

Ismatulloyev Akram Akmalovich
Toshkent shahar Mirobod tumani prokurori o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada soliq qonunchiligini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning jinoyat-protsessual hamda kriminalistik jihatlari tizimli ravishta tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida soliq jinoyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ularning sodir etilish mexanizmlari, yashirin iqtisodiy faoliyat bilan uzviy bog'liqligi hamda ularni aniqlash va fosh etishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Jinoyat-protsessual qonunchilik normalari asosida tergov harakatlarini amalga oshirish tartibi, dalillarni yig'ish, tekshirish va baholash jarayonining protsessual kafolatlari ilmiy asosda ochib berilgan. Amaliyotda uchrayotgan muammolar, jumladan, dalillar bazasining murakkabligi, transmilliy moliyaviy operatsiyalarni aniqlashdagi qiyinchiliklar hamda protsessual normalarni qo'llashdagi kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot yakunida soliq jinoyatlarini tergov qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Soliq jinoyatlari, kriminalistik ta'minot, iqtisodiy jinoyatlar, dalillar tizimi, moliyaviy monitoring, hujjatlarni kriminalistik tahlil qilish, soliqdan bo'yin tovlash mexanizmlari, raqamli kriminalistika, tergov metodikasi.

Abstract: This scientific article systematically analyzes the criminal procedural and forensic aspects of investigating crimes related to tax law violations. The research covers the socio-economic nature of tax crimes, their mechanisms of commission, their inextricable link with hidden economic activity, and the specific features of their detection and exposure. The procedure for conducting investigative actions based on the norms of criminal procedural law, procedural guarantees for the process of collecting, verifying, and evaluating evidence, are scientifically revealed. Problems encountered in practice, including the complexity of the evidence base, difficulties in identifying transnational financial transactions, and shortcomings in the application of procedural norms, are indicated. At the end of the research, scientific and practical proposals and recommendations were developed to improve the efficiency of investigating tax crimes.

Keywords: Tax crimes, forensic support, economic crimes, evidence system, financial monitoring, forensic analysis of documents, tax evasion mechanisms, digital forensics, investigative methodology.

Kirish

Hozirgi davrda iqtisodiy munosabatlarning liberallashuvi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va moliyaviy oqimlarning murakkablashuvi sharoitida soliq tizimi davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, soliq intizomini ta'minlash, soliqlar va yig'imlarning to'liq hamda o'z vaqtida undirilishini kafolatlash davlat iqtisodiy xavfsizligining muhim elementi hisoblanadi. Biroq, amaliyotda fuqarolar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik, daromadlarni yashirish, hisob-kitoblarni soxtalashtirish hamda murakkab moliyaviy sxemalar orqali soliqlardan bo'yin tovlash kabi huquqbuzarliklar keng tarqalib borayotgani ushbu sohada jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish masalalarini dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida mazkur munosabatlar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 8-moddasida soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyligi prinsipi mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra har bir soliq to‘lovchi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to‘liq va o‘z vaqtida to‘lashi shart.

Hozirgi kunda soliq jinoyatlarini aniqlash va tergov qilish jarayoni an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmay, balki zamonaviy kriminalistik texnologiyalarni keng qo‘llashni talab etmoqda. Xususan, raqamli kriminalistika, elektron ma’lumotlarni tahlil qilish, moliyaviy monitoring tizimlari hamda sun’iy intellektga asoslangan dasturlar jinoyatlarni tezkor aniqlash va dalillarni ishonchli yig‘ishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soliq jinoyatlari ko‘pincha murakkab moliyaviy sxemalar va axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda sodir etiladi, bu esa ularni aniqlash va fosh etishni qiyinlashtiradi. Shu bois zamonaviy kriminalistik texnologiyalarning imkoniyatlarini o‘rganish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Soliq jinoyatlarini aniqlash va tergov qilish jarayonida zamonaviy kriminalistik texnologiyalarning o‘rnini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda ushbu sohada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Dolzarbligi

Hozirgi davrda iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi soliq qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarning yangi, yashirin shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bunday huquqbuzarliklar davlat byudjeti daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazadi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 8-moddasida soliqlarni to‘lash majburiyligi belgilangan bo‘lsa, ushbu majburiyatni buzganlik uchun javobgarlik Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan. Shu bilan birga, mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksining 22-moddasi (ishning har tomonlama, to‘liq va xolisona tekshirilishi) hamda 85-moddasi (Isbot qilish) asosida amalga oshiriladi. Biroq amaliyotda murakkab moliyaviy sxemalarni aniqlash, jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va isbotlash jarayonida muayyan muammolar mavjud. Shu bois soliq jinoyatlarini tergov qilishning jinoyat-protsessual va kriminalistik jihatlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maqsadi

Mazkur tadqiqotning maqsadi soliq jinoyatlarini aniqlash va tergov qilish jarayonida zamonaviy kriminalistik texnologiyalarning o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida ushbu texnologiyalarning imkoniyatlari, ularni qo‘llash mexanizmlari, dalillarni to‘plash va baholashdagi ahamiyati hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari o‘rganiladi.

Asosiy qism

Soliq qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar iqtisodiy jinoyatlar tizimida alohida o‘rin egallab, ularning ijtimoiy xavfliligi davlat byudjeti daromadlariga bevosita zarar yetkazishi bilan izohlanadi. Mazkur turdagi jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular ko‘pincha murakkab moliyaviy-xo’jalik operatsiyalari, ko‘p bosqichli hisob-kitoblar, soxta hujjatlar hamda yashirin iqtisodiy faoliyat orqali sodir etiladi. Shu sababli, bunday jinoyatlarni tergov qilish jarayoni nafaqat jinoyat-protsessual normalarga rioya etishni,

balki kriminalistikaning maxsus usul va vositalaridan samarali foydalanishni ham talab etadi. Soliq jinoyatining obyektini davlatning moliyaviy tizimi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etsa, subyekti sifatida soliq to‘lovchilar yoki mansabdor shaxslar namoyon bo‘ladi. Ushbu jinoyatlarning obyektiv tomoni soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, daromadlarni yashirish yoki noto‘g‘ri hisobot topshirish bilan ifodalanadi. Subyektiv tomoni esa qasddan sodir etilishi bilan ajralib turadi. Huquqiy asoslarning aniqligi soliq jinoyatlarini aniqlash va tergov qilishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois ushbu jinoyatlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish tergov samaradorligini oshiradi.

Soliq jinoyatlari turli shakllarda namoyon bo‘lib, har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Eng ko‘p uchraydigan turlariga soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, daromadlarni yashirish, soxta hujjatlar tuzish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalar kiradi. Ushbu jinoyatlarning asosiy xususiyati ularning yashirin xarakterga ega ekanligidir. Ko‘pincha murakkab moliyaviy sxemalar orqali amalga oshirilishi ularni aniqlashni qiyinlashtiradi. Shuningdek, soliq jinoyatlari ko‘pincha boshqa iqtisodiy jinoyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Ularning tizimli va takroriy xarakterga ega bo‘lishi ham muhim jihat hisoblanadi. Ayrim hollarda bu jinoyatlar uyushgan guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli ushbu jinoyatlarni tergov qilish maxsus bilim va ko‘nikmalarni talab etadi.

Soliq jinoyatlarini aniqlash jarayoni kriminalistik va protsessual nazariyaga asoslanadi. Ushbu jarayonda jinoyat alomatlarini aniqlash, dastlabki ma'lumotlarni yig‘ish va ularni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Nazariy jihatdan soliq jinoyatlarini aniqlash moliyaviy hujjatlar va hisobotlarni chuqur tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlil usullari va statistik metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Jinoyat alomatlarini aniqlashda tizimli yondashuv muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonda soliq organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlik katta ahamiyatga ega. Nazariy asoslarning to‘g‘ri qo‘llanishi jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy kriminalistik texnologiyalar jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va dalillarni tahlil etishda qo‘llaniladigan innovatsion vositalar tizimidir. Ular fan-texnika taraqqiyoti natijasida shakllanib, tergov amaliyotiga keng joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar jinoyatlarni tezkor aniqlash va dalillarni aniq qayd etishda muhim ahamiyatga ega. Kriminalistik texnologiyalar tarkibiga raqamli kriminalistika, biometrik identifikatsiya tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi tahlil dasturlari va katta ma'lumotlar (big data)ni qayta ishlash vositalari kiradi. Ularni tasniflashda texnik, dasturiy va analitik yo‘nalishlar ajratiladi. Texnik vositalarga maxsus qurilmalar va laboratoriya uskunalari kiradi. Dasturiy vositalar esa ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishga xizmat qiladi. Analitik vositalar orqali esa jinoyat alomatlari aniqlanadi va prognoz qilinadi. Ushbu texnologiyalar tergov samaradorligini oshirib, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, ular dalillarni saqlash va taqdim etishda ishonchlilikni ta'minlaydi. Zamonaviy kriminalistik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Raqamli kriminalistika bugungi kunda jinoyatlarni tergov qilishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U elektron qurilmalar va raqamli axborotlar orqali jinoyat izlarini aniqlashga qaratilgan. Zamonaviy jamiyatda aksariyat moliyaviy operatsiyalar elektron shaklda amalga oshirilayotganligi sababli, elektron dalillar muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli kriminalistika kompyuterlar, mobil telefonlar, serverlar va bulutli tizimlarda

saqlanadigan ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Elektron dalillarni aniqlash jarayonida maxsus dasturiy vositalar va texnik qurilmalardan foydalaniladi. Ushbu jarayonda ma’lumotlarni tiklash, nusxalash va ularni huquqiy jihatdan mustahkamlash muhim hisoblanadi. Raqamli izlar jinoyatning sodir etilganligini tasdiqlovchi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, elektron dalillarni yig‘ishda qonuniylik tamoyiliga qat’iy rioya etilishi zarur. Chunki noto‘g‘ri olingan dalillar sudda haqiqiy deb tan olinmasligi mumkin. Raqamli kriminalistika usullarining rivojlanishi tergov jarayonini yanada samarali va tezkor amalga oshirish imkonini bermoqda.

Dalillarni to‘plash va baholash jinoyatlarni tergov qilishning markaziy bosqichi hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar ushbu jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, elektron ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish tizimlari katta hajmdagi axborotni tezkor qayta ishlash imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosidagi dasturlar orqali dalillar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi. Bu esa tergov jarayonining aniqligini oshiradi. Dalillarni to‘plash jarayonida raqamli vositalardan foydalanish inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi. Shu bilan birga, video va audio yozuvlar, elektron hujjatlar kabi zamonaviy dalil turlari keng qo‘llanilmoqda. Dalillarni baholashda ularning ishonchliligi, dolzarbligi va yetarliligi muhim mezon hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar ushbu mezonlarni aniqlashda yordam beradi. Bundan tashqari, ma’lumotlarni himoyalash va saqlash tizimlari dalillarning yo‘qolib ketishining oldini oladi. Natijada tergov jarayoni yanada samarali tashkil etiladi.

Soliq jinoyatlarini tergov qilish jarayonida bir qator muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolar tergov samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng asosiy muammolardan biri jinoyatlarning yashirin xarakterga ega ekanligidir. Soliq jinoyatlari ko‘pincha murakkab moliyaviy sxemalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa ularni aniqlashni qiyinlashtiradi. Shuningdek, elektron tizimlardan foydalanish jinoyatlarni yanada murakkablashtirmoqda. Malakali mutaxassislarning yetishmasligi ham muhim muammo hisoblanadi. Ayrim hollarda tergov organlarida zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalari yetarli darajada emas. Bundan tashqari, normativ-huquqiy bazaning ayrim jihatlari eskirgan bo‘lishi mumkin. Axborot almashinuvidagi kamchiliklar ham tergov jarayoniga salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli ushbu muammolarni kompleks ravishda hal etish zarur. Aks holda soliq jinoyatlariga qarshi kurash samaradorligi pasayadi.

Soliq jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish zamonaviy sharoitda dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda zamonaviy kriminalistik texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, sun’iy intellekt va raqamli tahlil tizimlaridan foydalanish tergov samaradorligini oshiradi. Mutaxassislarning malakasini oshirish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Shu bilan birga, qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur. Xalqaro tajribani o‘rganish va amaliyotga joriy etish ijobiy natijalar beradi. Tergov organlari o‘rtasida axborot almashuvini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli platformalar orqali tezkor ma’lumot almashinuvi ta’minlanadi. Kelgusida soliq jinoyatlariga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Ushbu chora-tadbirlar iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, soliq qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish masalalarini kompleks tahlil qilish natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, mazkur

toifadagi jinoyatlar o‘zining murakkab iqtisodiy-moliyaviy tabiati, latentlik darajasining yuqoriligi hamda ko‘p bosqichli sodir etilish mexanizmlari bilan ajralib turadi. Shu sababli ularni aniqlash va isbotlash jarayoni faqatgina jinoyat-protsessual normalarga tayangan holda emas, balki kriminalistik yondashuvlar va iqtisodiy tahlil usullari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda Jinoyat kodeksida belgilangan javobgarlik normalari soliq intizomini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda Jinoyat-protsessual kodeksining dalillarni yig‘ish va baholashga oid normalarini qo‘llash jarayonida muayyan murakkabliklar mavjudligi aniqlanadi. Xususan, moliyaviy hujjatlarning ko‘pligi, elektron tranzaksiyalarning murakkabligi hamda yashirin iqtisodiy operatsiyalarni aniqlashdagi qiyinchiliklar tergov samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan, soliq jinoyatlarini tergov qilish tizimini takomillashtirishda kriminalistikaning zamonaviy metod va vositalarini keng joriy etish, raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanish hamda iqtisodiy ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tergov organlari va soliq organlari o‘rtasidagi idoralararo hamkorlikni kuchaytirish hamda axborot almashinuvi tizimini takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, soliq qonunchiligini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarni samarali tergov qilish jinoyat-protsessual normalar, kriminalistik ilmiy yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligiga asoslangan kompleks tizimni shakllantirishni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash va soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xusanov D. Kriminalistik tahlil va dalillar // Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – № 2. – B. 48–56.
2. Yo‘ldoshev J. Raqamli texnologiyalar va tergov jarayoni // Zamonaviy ta’lim. – 2023. – № 1. – B. 70–78.
3. Qodirov A. Soliq jinoyatlarini tergov qilish muammolari // Huquqiy tadqiqotlar. – 2022. – № 2. – B. 65–73.
4. Usmonov F. Iqtisodiy jinoyatlar profilaktikasi va ularni oldini olish. – Toshkent: Adolat, 2022. – 280 b.
5. Rahimov Q. Soliq nazorati va audit asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 260 b.
6. Islomov B. Kriminalistik metodlar va tergov amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2023. – 310 b.
7. Qosimov D. Moliyaviy jinoyatlar va ularni fosh etish usullari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022. – 295 b.
8. Ergashev A. Raqamli iqtisodiyot va soliq xavfsizligi. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – 240 b.
9. Sodiqov M. Elektron dalillar va ularni protsessual mustahkamlash // Huquqiy tadqiqotlar. – 2023. – № 3. – B. 44–52.

10. To‘xtayev N. Kriminalistik ekspertiza va zamonaviy yondashuvlar // Yuridik fanlar jurnali. – 2022. – № 4. – B. 61–69.

11. O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi // https://lex.uz/docs/-4674902

12. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/-111453

13. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi // https://lex.uz/mact/-111460